

## **SURXONDARYO VILOYATI GIDRONIMLARINING GEOGRAFIK JIHATLARI**

**Eshboyev Bexzod Tojiyevich** - g.f.f.d., dotsent

**Bozorov Mansurjon Ismoil o'g'li** - magistrant

*Qarshi davlat universiteti*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining ichki suvlari bilan bog'liq joy nomlari (gidronimlar)ning shakllanishi va ularning geografik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida viloyat hududidagi daryo, soy, ariq, buloq, ko'l va boshqa suv obyektlari nomlari to'plandi hamda ularning kelib chiqishi, ularning etimologiyasi va bir nechta turlarga ajratilib, o'rganildi. Shuningdek, gidronimlarning hududiy tarqalishi, tabiiy-geografik sharoit bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.*

*Maqolada toponimik tahlil, qiyosiy-geografik va kartografik usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati gidronimikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, hududiy toponimik merosni saqlash va undan ilmiy hamda amaliy maqsadlarda foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:** gidronim, toponimiya, gidrografik to'r, qorasuv, daryo havzasi, sangardak, zoogidronim, antropogidronim, oykonim, etnogidronim.*

## **GEOGRAPHICAL ASPECTS OF HYDRONYM OF SURKHANDARYA REGION**

**Eshboyev Bexzod Tojiyevich** - PhD associate professor

**Bozorov Mansurjon Ismoil o'g'li** - Master's student

*Karshi State University*

***Abstract:** This article analyzes the formation of place names (hydronyms) associated with the inland waters of the Surkhandarya region and their geographical characteristics. During the study, the names of rivers, streams, ditches, springs, lakes and other water bodies in the region were collected and their origin, etymology and classification into several types were studied. The territorial distribution of hydronyms and their relationship with natural and geographical conditions were also analyzed.*

*The article uses toponymic analysis, comparative geographical and cartographic methods. The results of the study are of great importance in identifying the specific features of the hydronyms of the Surkhandarya region, preserving the territorial toponymic heritage and using it for scientific and practical purposes.*

**Keywords:** *hydronym, toponymy, hydrographic network, karasuv, river basin, sangardak, zoohydronym, anthropohydronym, oikonym, ethnohydronym.*

**Kirish.** Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi davlatlarning nomlariga odatda daryo, qabila xalq va markaziy shaharlar nomlari asos qilib olingan. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida daryolar muhim hayot manbayi vazifasini bajargan. Hidronimlar ayniqsa, yirik suv obyekti nomlari xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, "nomlardan nom tug'iladi" degan naqlning amaliy isboti o'laroq, toponimlarning boshqa turlarining yaratilishiga asos bo'lgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Tadqiqotni yoritishda Surxondaryo viloyati gidronimlariga doir qator ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, H.Hasanovning asarlarida geografik nomlarning kelib chiqishi, tarixiy va lingvistik xususiyatlari yoritilgan. P.G'ulomov tomonidan yaratilgan lug'at va ilmiy ishlarda geografik atamalar va tushunchalar izohlangan. Shuningdek, S.Tursunovning Surxondaryo viloyati toponimlariga oid tadqiqotlari hududiy nomlarning shakllanishi va mazmunini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, mavzuga oid boshqa ilmiy adabiyotlardan ham foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotni olib borishda geografik, kartografik, tarixiy, statistik kabi metodlardan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar:** Surxondaryo viloyati toponimlari tarkibida gidronimlar salmoqli o'ringa ega. Viloyat nomi va bosh daryosi ham gidronim asosida shakllangan. Viloyatning asosiy gidrografik to'rini Surxondaryo va Sherobodaryo hamda ularning irmoqlari bo'lgan To'polondaryo, Qoratog'daryo, Sangardakdaryo, Xo'jaipok va boshqa suv obyektlari tashkil etadi.

Viloyatning eng yirik daryosi Surxondaryodir (uzunligi 196 km). Daryo Hisor tog'larining janubiy yonbag'irlaridan boshlanadigan sersuv To'polondaryo va Qoratog' daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi va Amudaryoga quyiladi. Surxondaryoni "**qizil suv**" deb izohlashadi. Forscha *surx*-qizil, qizg'ish (rang)

Qon<ob-suv, daryo, *surxob* qizil suv, qizg'ish tuproqli suv. Surxondaryo boshlanish qismidan Denov shahrigacha Qizilsuv (Qizildaryo) deb ataladi. Surxondaryo o'rta asrlarda Chag'onrud, daryo vodiysi esa Chag'oniyon deb atalgan [9].

Surxondaryoning asosiy irmog'i To'polondaryo (uzunligi 112 km) Hisor tizmasining dengiz sathidan 3800 metr balandlikda joylashgan Hazrat Sulton massividagi qor va muzliklardan Qorasuv nomi bilan boshlanib, so'ngra Tamshush nomini oladi va G'ova irmog'ni qo'shib olgach To'polondaryo deb ataladi. "To'polon" so'zi gidronimiyada bu so'zni suvi goh ko'payib, goh ozayib oqadigan, o'zani o'zgarib turadigan daryo sifatida izohlash noto'g'ri. Daryoni Surxondaryoga qo'shilish joyini aholi *To'poloq*, *To'polaq* deyishgan. Forscha **to'pol – tog'dagi tekis maydoncha**. -ak affiksi qo'shilgan: to'polak - tog' bag'ridagi tekis maydondan oquvchi daryo degan ma'noni anglatadi [5].

Qoratog'daryo (uzunligi 95 km) surxondaryoning chap irmog'i bo'lib, hisor tizmasining janubiy yonbag'ridan boshlanib, havzasining maydoni **682 km<sup>2</sup>**. Qor va muzlarning erishidan to'yinadi. Asosiy irmoqlari Sherkent va Oqjarsoy hisoblanadi. Daryo baland tog'lardagi muz, qor yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinib, o'z o'zanini 60 metrdan 300 metrgacha kengaytirib oqadi. Gidronimiyada **qora** – yer osti suvi, sizot suv ma'nosida qo'llaniladi.

Surxondaryoning o'ng irmog'i bo'lgan Sangardakdaryosi (uzunligi 114 km) Hisor tog'idan Tegiqanor nomi bilan boshlanib, Qizilsoy irmog'ini qo'shib olgach Qizilsuv, so'ngra Sangardak nomini oladi. Daryoning, suv yig'adigan maydoni 948 km<sup>2</sup>. Qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Sangardak daryosi baland tog'lardan boshlanganligi sababli, daryoning yuqori qismida tor o'zanda katta tezlikda oqadi. Qadimgi eroniy tillarga oid bo'lgan *Sangardak* nomi; *Sang*—tosh (tog'), *gar*, *gard*—qal'a, shahar. *Sanggard*—tosh qo'rg'on ma'nosida keladi.

Sheroboddaryo (uzunligi 186 km). Daryo Hisor tog'i g'arbiy tizmasining janubiy yonbag'rida joylashgan 2700 metr balandlikdagi Belao'ta dovonidan boshlanadi. Sheroboddaryosi Irg'ayli va Qizilsoy daryolarining qo'shilishidan

hosil bo‘ladi. Daryoning nomi uning yuqori qismida Machaydaryo, Machay qishlog‘idan Sherobod shahrigacha Sheroboddaryo va so‘ngra Qorasuv nomi bilan ataladi. Akademik V.V.Bartoldning taxminicha, Sheroboddaryo hozirgi nomini XVII asr boshlarida olgan bo‘lib, daryoning o‘ng sohilida qal‘a qurgan o‘zbeklarning qo‘ng‘irot qabilasi hukmdori Sher Ali nomi bilan bog‘liq. Mahalliy rivoyatga ko‘ra, *Sherobod* atamasi “*shohrabot*” – *bosh rabot, katta rabot* ma’nosini bildiradi. *Rabot* – *qo‘rg‘on, qal‘a, istehkom, atrofi devor bilan o‘ralgan turar joy* [9].

Sheroboddaryoning irmog‘i hisoblangan Laylagansoy (uzunligi 43 km) Ko‘hitang tog‘ tizmasidan boshlanadi. “Laylagansoy” toponimi tarkibiy jihatdan “laylak” va fors tilidagi ko‘plik ma’nosini bildiruvchi “-on” affiksidan tashkil topgan bo‘lib, “laylaklar” degan ma’noni anglatadi. Shunday qilib, Laylagansoy — “laylaklar ko‘p bo‘lgan soy” yoki “laylaklar yashaydigan ariq” mazmunini ifodalaydi. Ushbu nom daryo vodiysining tabiiy geografik xususiyatlari, xususan, qushlar — ayniqsa laylaklarning ko‘pligi bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan.

To‘polondaryoning yirik chap irmog‘i Kishtut daryosi (uzunligi 50 km). Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy yonbag‘ridagi muzliklardan boshlanadi. Kishtut yonbag‘irlari baland va tik, ayrim joylarda tor vodiya, nishabi katta o‘zanda oqadi. “Kishtut” toponimi tarkibida fors-tojik tilidagi *kish/kesh/kush/qush* komponenti “**balandlik**”, “**tog‘**” ma’nolarini bildiradi, *tut* esa tut daraxtining nomidir. Ushbu nom daryo balandliklar etagida joylashgan, tut daraxtlari o‘sadigan qishloq hududidan oqib o‘tganligi bilan bog‘liq holda shakllangan.

Obizarang daryosi Surxondaryoning o‘ng irmog‘idir. Daryo nomi fors-tojik tilida *Ob* – suv, daryo, *zarog‘an* – qattiq qumli yer, qattiq toshloq yerdan oquvchi daryo degan ma’nolarni anglatadi.

Zevarsoy (uzunligi 18 km). Kishtut daryosining chap irmog‘i hisoblanadi. Hisor tizmasining janubiy tarmog‘i Qoldirg‘a tog‘ining shimoli-g‘arbiy yonbag‘irlaridan oqib tushadigan irmoqlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lib, g‘arbiy

yoʻnalishda oqadi. Forscha *zevar* – chiroy demakdir. Zevarsoy – “*chiroyli, manzarali vodiya*” maʼnosini anglatadi [5].

**Viloyat gidronimlarining turlari va ularning hosil boʻlishida geografik terminlarning roli.** Joy nomlarining tarkib topishida suv obyektlari bilan bogʻliq holda paydo boʻlgan nomlar, yaʼni gidronimlarni Surxondaryo viloyatining deyarli barcha hududlarida uchratish mumkin. Viloyat hududida uchraydigan gidronimlar bir nechta turga ajratilib, oʻrganildi. Jumladan, *suvning harakati, geografik oʻrniga koʻra atalgan, relyef bilan bogʻliq boʻlgan, etnogidronimlar, oykonimlar, fitogidronimlar, zoogidronimlar, antropogidronimlar, kasb-hunar bilan bogʻliq gidronimlar, afsonaviy va diniy nomlar, zamonaviy gidronimlardir* (1-jadval).

### Surxondaryo viloyati gidronimlarining turlari

1-jadval

Gidronimlarning turlari	Gidronimlar
<b>suvning harakati (oqimi, miqdori, suvning xususiyati va boshqa) bilan bogʻliq</b>	Garmob (buloq, Sariosiyo t.), Ilonlisoy (daryo, Sherobod t.), Koʻkbuloq (buloq, Qumqoʻrgʻon t.), Shoʻrob (soy, Boysun t.)
<b>geografik oʻrniga koʻra atalgan</b>	Janubiy Surxon suv ombori (Qumqoʻrgʻon t.), Yuqori Damariq (ariq, Sariosiyo t.), Shimoliy shoʻrsoy (buloq, Sherobod t.)
<b>relyef bilan bogʻliq boʻlgan</b>	Obidara (soy, Denov t.), Sariqiya (koʻl, Boysun t.),
<b>etnogidronimlar</b>	Qipchoqsoy, Oyinniquduq, Toqchibuloq, Oʻrsoy (soy, buloq, quduq, Boysun t.)
<b>oykonimlar bilan bogʻliq boʻlgan</b>	Sheroboddaryo (daryo, Sherobod t.), Azlarsoy (soy, Qumqoʻrgʻon), Hazorbogʻ kanali (Denov t.)
<b>fitogidronimlar</b>	Anorbuloq, Pudinabuloq (buloq, Boysun t.), Dillakoʻl (koʻl, Termiz t.), Obichinor (soy, Denov t.), Jiydabuloq (soy, Uzun t.)
<b>zoogidronimlar</b>	Xukparida, Morbuloq, (soy, buloq, Boysun t.), Itbuloq, Otkamar (buloq, Uzun t.)
<b>antropogidronimlar</b>	Ravshan koʻl, Quduqi Asad, Hovzi Qobul, (koʻl, quduq, Boysun t.), Yoqubsoy (soy, Sherobod t.)

<b>kasb-hunar bilan bog‘liq nomlar</b>	Degrez suv ombori (Oltinsoy t.)
<b>afsonaviy va diniy nomlar</b>	Xo‘jamayxona bulog‘i, Xo‘jaqo‘chqorota bulog‘i (buloq, Boysun t.), Xatib (ariq, Uzun t.)
<b>zamonaviy gidronimlar</b>	G‘alaba kanali (Qumqo‘rg‘on t.), Yangiariq (ariq, Denov t.)

*Jadval muallif (lar) tomonidan tuzilgan.*


Viloyat gidronimlari tarkibida ko‘pincha *soy, buloq, ko‘l, daryo, ob* terminlari faol ishtirok etgan (1-rasm).

**Soy** termini. Ikki adir yoki tog‘ oralig‘idagi pastlik joy, suv yo‘li. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” soy (say) so‘zining tub ildizi “toshloq tekislik” ma’nosini anglatgan va hozirgi ma’nosi keyin yuzaga kelgan, deb izoh beriladi. Mahmud Qoshg‘ariy esa “say – qora toshli yer” deb izohlagan. Fin lingvisti Gustav Ramsted say so‘zini mo‘g‘ul tilidagi toshlidaryo, daryo o‘zani ma’nolarini anglatgan “sayir, sajir” so‘zlari bilan bog‘laydi.

**Buloq** termini. Buloq so‘zi fors-tojikcha *chashma* atamasi bilan parallel tarzda qo‘llanadi. Buloq yer ostidan chiqayotgan suv manbai va uning suvi. Buloq komponentli toponimlar turkiy tillar hududi va mo‘g‘ul tilida keng tarqalgan.

**Ko‘l** termini. Bu termin kichikroq tabiiy suv havzasi nomini anglatadi. Ko‘l suvining ko‘p yoki kamligiga qarab *ko‘lchak, ko‘lmak* variantlari ham mavjud. Ko‘l so‘zi deyarli barcha turkiy tillarda gidrografik termin sifatida ham, gidronim komponenti sifatida ham iste’molda bo‘lgan umumturkiy terminlardan biridir [1].

**Daryo** termini. Tabiiy o‘zandan oqadigan katta suv oqimi Ozarboyjon toponimlari tadqiqi bilan shug‘ullangan G.A.Gaybullayev *daryo* so‘zi eron tiliga oid desa, N.Begaliyev fors tilida *daryo*, ya’ni *dengiz* so‘zi bilan bog‘liq deya ta’kidlaydi.



**1-rasm. Surxondaryo viloyati gidronimlari tarkibida eng faol tabiiy geografik terminlarning ulushi**

**Xulosa va takliflar:** Surxondaryo viloyati gidronimlarini geografik jihatdan tahlil qilish natijasida hududdagi suv obyektlari nomlari tabiiy-geografik sharoit, relyef, iqlim va gidrologik xususiyatlar bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida gidronimlar kelib chiqishi va mazmuniga ko‘ra bir necha guruhlariga ajratilib o‘rganildi. Xususan, tabiiy xususiyatlarga asoslangan, antropogen omillar bilan bog‘liq hamda tarixiy-etnik ildizlarga ega bo‘lgan gidronimlar alohida tahlil qilindi. Bu esa hudud gidronimlarining shakllanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi.

Shuningdek, gidronimlar hududning tabiiy sharoitini aks ettiruvchi muhim geografik axborot manbai ekanligi, ular orqali o‘tmishdagi tabiat holati va inson faoliyati haqida xulosa chiqarish mumkin. Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida toponimik tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, geografik nomlarni tizimlashtirish hamda ularni ilmiy asosda o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmadaliyev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona, 2018. – 120 b.

2. Eshboyev B. T., Vozorov M. I. ETNOTOPONIMLAR VA ULARNING TOPONIMIK TAHLILI //Экономика и социум. – 2024. – №. 11-1 (126). – С. 127-131.
3. K.M.Xakimov Toponimika. Jizzax: Ilm nuri print 2024. – 320 b.
4. Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 82 b.
5. O‘zbekiston joy nomlari (izohli lug‘at) Birinchi nashr. – T.: 2022. – 639 b.
6. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 240 b.
7. Surxondaryo viloyati o‘lkashunoslik atlas. “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi 2016.
8. Tursunov S., Rashidov Q. “Boysun”, Boysun Akdemnashr nashriyoti, 2011.
9. Tursunov S.M. Surxondaryo viloyati toponimlari. – T.: 2014
10. Tursunov S.N., Pardayev T.R., Mahmadiyoroova N., Surxondaryo – etnografik makon. – Termiz. 2012. – 216 b.